

ONOMASTIKA VA URBANOMIKA NAZARIYASI: GODONIMLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOSLIGI

Turdaliyeva Durdona Adxamovna - o'qituvchi
O'zbekiston davlat jaho tillari universiteti
turdaliyevad336@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Onomastika va urbanonimika nazariyasi: godonimlarning o'rni va o'ziga xosligi haqida bo'lib, unda godonimlar mavzusi yoritib beriladi. Onomastika - tilning maxsus sohasi bo'lib, o'ziga xos nom birliklarini (antroponimlar, toponimlar, korporonimlar, etnonimlar va boshq.) o'rganadi. Bu soha til va madaniyat munosabatini ochib berishda muhim o'rin tutadi. R. A. Akhmanova onomastik birlikni nutq hamjamiyati tomonidan aniq obyektga tegishli deb tan olingan maxsus nominativ birlik, deb ta'riflaydi.

Kalit so'zlar: onomastika, urbanomika, godonim, antroponim, toponim, korporonim va etnonimlar.

Toponimika esa onomastikaning tarkibiy bo'lagi hisoblanadi va unda geografik nomlar o'rganiladi. Urbanonimika - shahardagi obyektlarga qo'yilgan nomlarni tadqiq qiluvchi alohida yo'nalish bo'lib, unga quyidagi nomlar kiradi: ko'cha, maydon, ko'pri, bekat, mahalla, jamoat inshootlari va boshqalar.

Urbanonimika shaharni ijtimoiy - madaniy makon sifatida tadqiq qiladi. Godonimlar esa bu makonning mental xaritasini shakllantiradi. Lynchning mashhur "shahar obrazi" konsepsiyasiga ko'ra, shahar elementlari inson ongida nomlar orqali tasavvurga aylanadi. Shuning uchun ko'cha nomlari nafaqat yo'nalish ko'rsatuvchi belgilar, balki shaharni idrok qilishning kognitiv vositasidir.

Shahar ko'chalari nomlari jamiyatning ideologiyasini, milliy identitetini, tarixiy xotirasini, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Golomidova fikricha, "Urbanonimlar jamiyat taraqqiyoti va siyosiy dinamikasining lingvistik ko'rsatkichidir".

Shuningdek, godonimlar antropotsentrik tabiatga ega, chunki ular inson faoliyati bilan bevosita bog'liq. Tillard¹ hamda Karpenko shunday fikr yuritadi: "Shahar nomlar tizimi - kishilik faoliyatining eng muhim yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan ijtimoiy semantik xaritadir".

Godonimlar motivatsion asoslariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

¹ Tillard, M. City Names and Social Identity. London: Routledge., 2015 - p. 29

1-jadval

Motiv turi	Tavsif	Misollar
Tarixiy	mashhur shaxslar, voqealar	“Alisher Navoiy”, “Independence Avenue”
Geografik	hudud, relyef	“Bog‘ ko‘chasi”, “Riverside Street”
Ideologik	mafkura va siyosiy qadriyatlar	“G‘alaba”, “Freedom Street”
Madaniy	san‘at, fan arboblari	“Beethoven Street”, “Abu Rayhon Beruniy”
Mahalliy	xalqona nomlar	“Chorsu”, “Broadway”, “Old City Road”

Bu tasnif bir vaqtning o‘zida jamiyat mentalitetini ham yoritadi.

Godonimlar - “lingvistik muzey”. Superanskaya ta’kidlaganidek, “Toponimlar - jamiyatning tilga kodlangan tarixiy xotirasidir”.²

Ko‘cha nomlaridagi har bir o‘zgarish ya’ni, tarixiy siyosiy o‘zgarishlarni, milliy-mafkuraviy yangilanishni, jamiyat ustuvorliklarining o‘zgarishini ko‘rsatib turadi. Fikrimizni misol uchun quyidagi jadval asosida ko‘rsatishimiz mumkin:

2-jadval

Davr	O‘zgarish	Lingvokulturologik mazmun
Sovet davri	“Lenin”, “Karl Marks”, “Krasnaya”	Ideologiya markazlashuvi
Mustaqillik davri	“Temur”, “Barkamol avlod”, “Istiqlol”	Milliy uyg‘onish va identitet

Bular godonimlarning dinamik lingvistik tizim ekanini tasdiqlaydi.

Onomastika atoqli otlarning kelib chiqishi, tizimi va funksiyasini o‘rganuvchi lingvistika sohasi bo‘lib, uning toponimika, antroponimika, urbanonimika kabi tarmoqlari mavjud. Urbanonimika - shahar makoniga oid nomlar tizimini, jumladan godonimlarni o‘rganadi. R. A. Akhmanova ta’kidlaganidek, “onomastik birliklar tilning madaniy kodini saqlovchi muhim unsurlardir”³.

² Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 2009. стр. 79

³ Ахманова Р. А. Словарь лингвистических терминов. - Москва, 2004., стр. 147

Godonimlar kommunikativ makonning nomlanish tartibini belgilab, jamiyat xotirasi, madaniy qadriyatlari va tarixiy tajribasini til orqali aks ettiradi. A. V. Superanskaya fikricha, godonimlar shahar ijtimoiy hayotining aks-sadosi bo'lib, davlat siyosatidagi o'zgarishlarni eng tez ko'rsatadigan nomlar qatlamidir⁴. Fikrimizni asoslash uchun quyidagi misollarni keltirib o'tamiz:

3-jadval

Inglizcha godonim	Ma'nosi	Lingvokulturologik xususiyat
King's Road	Monarxiya bilan bog'liq	Siyosiy tarix
Wall Street	Mustahkamlash devoridan kelib chiqqan	Iqtisodiy identitet
Oxford Road	Ilm markazi bilan bog'liq	Ma'rifiy qadriyat

4-jadval

O'zbekcha godonim	Ma'nosi	Lingvokulturologik xususiyat
Amir Temur ko'chasi	Tarixiy shaxs	Milliy g'urur
Buyuk Ipak yo'li	Tarixiy savdo yo'li	Tarixiy xotira
Bog'ishamol	Tabiatga taalluqli	Lokal identitet

Godonimlar jamiyatning tarixiy-madaniy semiosferasini belgilovchi muhim lingvokultur birlikdir.

Shahar nomlari sistemasi ichida godonimlar (ko'cha nomlari) alohida semantik-pragmatik ahamiyatga ega bo'lgan toifadir. Ular shahar makonini tashkillashtiradi, identifikatsiya qiladi hamda madaniy xotirani saqlaydi. Karpenko ta'kidlaganidek, "Ko'cha nomi nafaqat obyektни nomlaydi, balki shahar tarixiy-madaniy jarayonlarining lingvistik izidir".

Shahar onomastik tizimi esa har doim milliy tarix, ideologiya, urf-odat, qahramonlar, geografik xususiyatlar va tilning ichki qonuniyatlarini aks ettiradi. Shu ma'noda, godonimlar lingvokulturologik kod vazifasini bajaradi⁵.

Masalan:

⁴ Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 2009., стр. 15

⁵ Голомидова М.В. Урбонимика: теория и практика. Екатеринбург: Ural University Press. 2018., стр. 41

- Toshkentdagi ko'chalarda milliy tarixiy shaxslar:
Amir Temur ko'chasi, Bobur ko'chasi - qahramonlik xotirasi

- Londonda:

Baker Street - kasb va hunar tarixi;

Oxford Street - ta'lim-ma'rifat an'analari bilan bog'liq

- Nyu-Yorkda:

Wall Street - iqtisodiy kuch va global kapital

Bu misollar godonimlar ijtimoiy-madaniy mazmun tashuvchilar ekanini ko'rsatadi.

Godonimlar semantikasi ikki asosiy qatlamdan iborat:

5-jadval

Qatlam	Mazmuni	Misol
Denotativ	Fizik obyekt - ko'cha/yo'l	Farobiy ko'chasi
Konnotativ	Madaniy - tarixiy va ideologik ma'no	Sharq mutafakkiri xotirasi

Shu bois, godonimlar nafaqat lisoniy belgilar tizimi, balki madaniy belgilashning diskursiv vositasi hisoblanadi⁶.

Godonimlarning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Barqarorlik - tarixiy xotirani saqlaydi;
- Guruhga xoslik - faqat ma'lum hududga tegishli;
- Ijtimoiy baholashni aks ettirishi - mafkura o'zgarishi bilan nomlar o'zgaradi;
- Ko'p qatlamli semantika - yashirin madaniy mazmunlar mavjud.

Masalan, mustaqillik yillarida ko'plab O'zbekiston shaharlarida ko'cha nomlari milliy qadriyat va tarixiy shaxslar nomiga qayta tiklandi - bu ijtimoiy o'zgarishlar va identitet yangilanishining lingvokulturologik ko'rinishidir.

Godonimlar shahar onomastik tizimining eng faol va o'zgaruvchan qatlami bo'lib, ular orqali:

- jamiyat qadriyatlari
- madaniy xotira
- tarixiy meros
- milliy o'zlik
- lingvistik shaklga ega bo'ladi.

Shunday qilib aytish mumkinki, godonimlar shahar madaniy makonining konseptual asosini tashkil etadi va bu orqali jamiyat o'z tarixini, o'zligining ma'naviy qadriyatlarini, kollektiv xotirasini avlodlarga uzatadi.

⁶ Беляева Е.В. Городская топонимия в контексте лингвокультурологии. Москва Фланта., 2020. Стр. 52

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Грбаневский, М.В. “Ономастика города”. Москва, 2000.
2. Anderson, J. “Urban Toponyms and Cultural Identity”. Cambridge University Press, 2015.
3. Mahmudov, N.M. “O‘zbek toponimikasi asoslari”. Toshkent, 1999.
4. Dadaboyev, Sh. “O‘zbek toponimlari tarixi”. Toshkent, 2005.
5. Jo‘rayev, G. “Urban toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari”. Toshkent, 2010.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Arxivi, 2021.